



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 21 mart, № 59 (8682)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!

Munosabat

Jonajon O'zbekistonimizda Navro'z shukhi hukm surayotgan shu kunlarda Prezidentimiz tashabbusi asosida olib borilayotgan ulkan miqyosdagi bunyodkorlik ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zalvarli natijalari o'zining butun bo'y-basti bilan namoyon bo'lmoqda. Inson qadrini ulug'lash, aholi farovonligi va iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlar tufayli Vatanimiz jahon hamjamiyatida demokratik tamoyillar asosida jadal rivojlanayotgan davlat sifatida e'tirof etilmoqda. UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini O'zbekistonda, aniqrog'i, Samarqand shahrida o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilangani ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

DUNYONI CHORLAYOTGAN BOQIY SHAHAR

Prezidentimizning shu yil 15-martdagi "2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan tanishar ekanmiz, ko'nglimizda shu muqaddas yurtida tug'ilganimizdan va yashayotganimizdan yana bir bor cheksiz faxr hissini tuyamiz. Bu bejiz emas. Zero, ushbu hujjatda belgilab berilgan vazifalar nufuzli xalqaro tadbiri o'tkazish jarayonida O'zbekiston va UNESCO hamkorligini yanada rivojlantirish bilan birga, "Yer yuzining sayqali" deya ta'rif beriladigan Samarqandning jahon hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Qarorda ta'kidlanganidek, keyingi yillarda O'zbekistonning UNESCO

bilan hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'sini yanada oshirish va mustahkamlashda, ikki va ko'p tomonlama hamkorliklarni kengaytirish va chuqurlashtirishda UNESCO muhim platforma vazifasini o'tab kelmoqda.

Buning natijasida 2017 — 2023-yillarda milliy madaniy merosimizning 14 ta noyob namunasi UNESCOning ro'yxatlaridan joy olib, insoniyat merosi sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etildi. Buxoro shahri Ildor shaharlar tarmog'iga kiritildi. 2023-yil sentabr oyida UNESCO Bosh qarorgohida buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligi keng nishonlandi.

Albatta, nufuzli tashkilot sanalgan

Oqil SALIMOV, akademik.

UNESCO hamma mamlakatda ham bunday olamshumul anjumanlarni o'tkazavermaydi. Buning ham albatta, ma'lum bir sabablari bor. Tarixiy manbalarga qaraydigan bo'lsak, azal-azaldan Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan Samarqand shahri Sharq va G'arb, Shimol va Janubni o'zaro bog'laydigan, Yevropa, Osiyo va Afrika qit'olari o'rtasida savdo-iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnologik almashinuvlar makoni bo'lib xizmat qilganiga guvoh bo'lamiz.

Ahamiyatli, O'zbekiston butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham hamkorlik nuqtayi nazaridan muhim davlat hisoblanadi. E'tibor bering: qirq



yildan ortiq vaqt davomida UNESCO Bosh konferensiyasining sessiyasi ilk bor Parij shahridan tashqarida, yana deng, ona yurtimiz O'zbekistonda o'tkazilishi, chindan-da, tarixiy bir voqealik sanaladi. Mazkur nufuzli tadbir Fransiyadan tashqari oxirgi marta Sofiya shahrida bundan 40 yil oldin o'tkazilgan edi.



Tuhfa

VODIY AHOLISI UCHUN YANA BIR QULAYLIK

Navro'z bayrami arafasida Farg'ona vodiysi aholisi uchun yana bir qulaylik yaratildi. Qo'qon — Xonobod yo'nalishida poyezd qatnovining yo'lga qo'yilishi haqiqiy bayram sovg'asi bo'ldi.

— Vagonda yo'lovchilar uchun barcha sharoit bor ekan, — deydi mehnat faxriysi E'tiborxon Toshxo'jayeva. — O'rindiqlar yumshoq, televizor, telefon quvvatlantirgich, isitish va sovitish vositalariga ega. Tamaddi qilish, kitob yoki gazeta o'qish uchun ham sharoitlar yaratilgan. Vagon kuzatuvchilari nihoyatda xushmuomala.

Ushbu poyezd qatnovi Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlarida istiqomat qiluvchi aholi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi. Sababi Qo'qon shahri vodiyni yirik savdo, Xonobod shahri esa sayyohlik markazi sifatida ma'lumu mashhur.

Poyezd kecha 2 soatu 15 daqiqa davom etgan o'zining ilk harakatini amalga oshirdi. Uning birinchi faxriy yo'lovchilari nuroniylar, mehnat faxriylari, yoshlar va faollar bo'ldi.

"Xalq so'zi".

BAHORI GULGUN XALQQA BAYRAMLAR YARASHADI

Bahorning gultoji hisoblangan Navro'z Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarning qadimiy hamda eng aziz bayramidir.

Yurtimizda ham har yili bu kun yangi yilning boshlanishi sifatida katta quvonch bilan kutib olinadi. Bahor kirishi bilan bug'doylar undirishga qo'yiladi, qozonlarda sumalaklar qaynaydi, ko'kat chuchvara, yalpiz somsa kabi taomlar pishiriladi, otchopar, uloq, kurash singari xalq o'yinlari, sayillar o'tkaziladi.

Sharqona yangi yil hisoblangan ushbu bayram bugungi kunda dunyoning ko'plab xalqlari tomonidan katta shodiyona bilan nishonlanmoqda.

Quyida biz dil izhorlarini yozib olgan qardosh xalq vakillarining fikrlarini o'qir ekansiz, bahor nafasini, Navro'z shodligini his etasiz.

E'tirof

Salim BOBULLAO'G'LI,
shoir va tarjimon (Ozarbayjon):

— Tarixiy manbalar kafilik berishicha, Navro'zni nishonlash turkiy xalqlarning eng katta bayrami hisoblangan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarini o'qish jarayonida Navro'zga bag'ishlangan ko'plab xalq qo'shiqlariga duch kelganman. Navro'z bayrami haqidagi ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Umar Xayyomning "Navro'znoma"si, shuningdek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning asarlarida ham uchraydi.

Umuman olganda, Sharq mamlakatlari hamisha ushbu bayramni yuqori kayfiyat hamda o'zgacha shukuhda kutib olishgan. Ammo, ko'pchilikka ma'lumki, sobiq ittifoq davrida Navro'z diniy bayram va marosimlar qatorida asossiz ravishda man qilingandi. Ayni o'sha onlarda millatlarimiz o'zining Navro'z bilan bog'liq bir qancha qadriyat va an'alarini unutgani,

to'g'rirog'i, unutishga majbur bo'lgani rost. Lekin mana bugun mustaqilimiz, boshqa qadriyatlar qatori Navro'zimiz ham yana qayta tiklandi.

Ushbu bayram xalqlarni birlashtiruvchi, tinchlikka, do'stlikka, birdamlikka undashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqlarimiz uchun umumiy bo'lgan bu ayyom bugun mana eshigimizni qoqib, ostonamizda turibdi. Mamlakatlarimizda Navro'z bayramining nishonlanishi ikki millatning tili, qadriyatlar, tinchlik va farovonlikka intilishidagi mustarakligidan dalolat.

Bundan 4-5 yillar ilgari O'zbekistonda bo'lganimda sumalak yegandim, uning ta'mini hali-hamon eslayman. Shu yaqin yillarda aynan sumalak tanovul qilish uchun ham O'zbekistonga bormoqchiman.



Sabriy QUSHQO'NMAS,
huquqshunos va yozuvchi (Turkiya):

— Bahor — qalblarimizga farah bag'ishlovchi fasi bo'lsa, Navro'z uni saodatu baxt bilan yasantiradigan kundir. Ulkan hayajon bilan nishonlanadigan, ko'ngillar shodlik va kelajakka umid bilan to'ladigan ushbu

kunlarda g'amga cho'mish ko'p narsadan mosuvo bo'lish, degani.

Navro'z an'anasi so'nggi muzlik davri tugashidan biroz oldin boshlangan. O'sha davrlarda fasillar inson hayotida hozirigidan ko'ra muhimroq bo'lib, hayot bilan bog'liq barcha narsa to'rt fasl bilan chambarchas edi. Qattiq qishdan so'ng kelgan bahor ona tabiatning uyqudan uyg'onishini, ko'kalamzorlashtirishni, chorva mollarining tug'ilishini anglatardi. Inson uchun katta imkoniyat, to'kin-sochinlikning jonlanishi hisoblanardi bu fasl.



"Madaniyatingiz nihoyatda boy ekanligidan hayratdaman"

Andijon viloyatida Navro'z bayramining asosiy tadbirlari Yangi Andijon mavzesida bo'lib o'tmoqda. Uch kun davom etadigan xalq sayillarida milliy o'yinlar, sport bellashuvlari, ashula va laparlari barchaga bahoriy kayfiyat ulashmoqda, ko'klam taomlari tayyorlanayapti.

Taassurot

Sayilda andijonliklar bilan bir qatorda, qo'shni mamlakat fuqarolari va boshqa xorijlik mehmonlar ham ishtirok etayotir.

— Hamkorlarimiz taklifi bilan Navro'z bayramini nishonlash uchun Yangi Andijonga keldik, — deydi Kim Min Xyon. — To'g'risi, ko'p xalqlarning milliy bayramlarida qatnashganman, biroq Navro'zdek fayzli, tarovlatli shodiyonani ko'rmaganman.

Minglab aholi bir manzilda to'planib, bayramni nishonlashi ahillik, inoqlik va tinchlik-osudalik ifodasidir. Kecha iftorlikda qatnashib nihoyatda mazali sumalak, mastava va devzira oshdan tatib ko'rdim. Bugun chavandozlar, dorbozlarning chiqishlarini

ko'rib, xalqingiz madaniyati nechog'li boy ekanligidan hayratdaman!

Bayram tadbirlari dastlab har bir shahar va tumanlardagi mahallalardan boshlandi. Bunga qadar ko'chalarda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi. Natijada 644 gektar maydon tartibga keltirilib, ariqlar mavsumga hozirlandi. 180,5 ming tup mevali, manzarali va gul ko'chatlari o'tqazilib, yangi bog'lar barpo etildi.

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi").



Shukuh

ASRLARGA GUVOH CHANQOVUZ

Ziyoda opa qishloq ortidagi kenglikda nishonlanayotgan Navro'z sayliga biroz kechikib keldi. Qishloqdoshi va hamkasbi Yunusbek uning qarshisiga shoshib chiqdi.

— Opa, chanqovuzni olib keldingizmi? Odamlar so'rashyapti...
— Ha, olib keldim, — bosh iring'adi Ziyoda opa.
— Unda o'zingiz boshlaysizmi yo men chalaymi?
— Mayli, avval o'zim boshlab beraqolay...

Ziyoda opa shunday degancha ro'parasidagi toshning ustiga o'tirib, chanqovuzini maroq bilan chala boshladi: biyu-biyu... biyu-biyu...

Keng dalani mitti sozning allaqanday sehhri, qalbarni sel qilib yuborishga qodir nolalari tutdi.

Endi otini sovitib, ko'pkariga shaylanayotgan chavandozlar ham, sumalak boshida qo'shiq aytib, o'yin-kulgi qilayotgan qiz-kelinlar ham, ancha naridagi tepalik ustida qiy-chuv qilib varrak uchirayotgan bolajonlar ham, hamma-hamma bir pasda yopirilib kelib, Ziyoda opaning atrofida davra qurishdi. Chanqovuzning hazin va sehhri nolalarini berilib tinglay boshlashdi.

Qishloq ahli uchun bu chanqovuzning ovozi ham, tarixi ham juda qadri. Axir bir paytlar uni shu qishloqlik Azov momo frontda chalgan edi-da. Fashistlarga qarshi kurashda jangchilarimizga kuch va iroda baxsh etgan bu soz bugun qishloq ahlining to'y bayramlariga xizmat qilmoqda.

— Bobolarimizning aytishicha, bu chanqovuzning yasalganiga bir asrdan oshibdi, — deydi G'uzor tumanidagi "Omonyor" folklor-etnografik dastasi a'zosi Yunusbek Hayitov. — O'z vaqtida bu chanqovuzni biz Azov momo deb ataydigan momomiz chalar ekan. U kishi Ikkinchi jahon urushi vaqtida frontga borib, u yerdagi konsertlarda shu chanqovuzni chalgani haqida bobolarimizdan eshitganmiz. Buning o'zi bir tarix. Keyin momomiz chanqovuzni qizi Sharofat ayaga bergan. Sharofat aya Alimova ham ko'p yillar davomida qishlog'imiz bayramlarida bu sozni chalb yurdi.



Xush kelding, aylanay tarovatingdan!



2- sahifaga qarang.

